

*Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblari-  
rimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga  
alohida e'tibor qaratishimiz kerak.*

**Shavkat MIRZIYOYEV**

# Tong

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:2 (67219)  
2019-yil 14-yanvar

# yulduzi

[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

**BUGUN - VATAN HIMOYACHILARI KUNI**



**ELNING SUIYUK O'G'LONISAN,  
BO'LAJAK YURT POSBONISAN!**



**Vatanimga  
xizmat  
qilaman!**

## JASUR ASKAR JASORATI o'quvchilarni vatanparvarlikka chorlaydi


Termiz shahri yurtimizning chegara hududlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, bu yerda xizmat qilayotgan harbiy chegarachilar tun-u kun sergak turishlari shart.

Vatanimiz sarhadlarini munosib himoya qilish, g'araz niyatli kimsalarni chegaraga yo'latmaslik ularning oliy burchi hisoblanadi. Bu yo'lda ular hatto o'limga ham yuzma-yuz boradilar. Ammo har kun

yana bir bor esga olindi. Tadbirda ishtirok etgan mehmonlar bugungi tinch va osoyishta hayotimizni asrashda harbiylarning alohida o'rni borligini faxr bilan aytib o'tdilar. So'ngra, chegarachi G'ulomjon Husanovning hayoti va jasoratiga bag'ishlangan «Mard o'g'lonlar nomi barhayot» nomli kitob taqdimoti bo'lib o'tdi.

Shuningdek, «Harbiy vatanparvarlik oyi» doirasida maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari shahardagi harbiy qismga sayohat uyushtirdi. Sayohat davomida kichkintoylar harbiy akalarining hayot faoliyati bilan yaqindan tanishdilar. Vatan himoyachilariga o'zlarining she'r-u qo'shiqlarini armug'on etdilar va ular bilan esdalik uchun rasmga tushdilar.

Ozoda TURSUNBOYEVA



ham tinch-osuda o'tmasligi hammaga ayon. Sariosiyo – Uzun tog'larida bo'lib o'tgan janglarda mardlaracha halok bo'lgan G'ulomjon Husanovni termizliklar doim yaxshi xotiralar bilan yodga olishadi.

Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabi o'quvchilari navbatdagi tadbirga jam bo'lganda, mard va jasur askarning jasorati



Maktabimiz juda chiroyli. Hovlisida mevali daraxtlar juda ko'p. Anvoyi gullar qish kunlarida ham ochilib turadi. Kitoblarga boy shinamgina kutubxonamiz esa o'quvchilar bilan doimo gavjum.

## HAR SESHANBA MATBUOT KUNI

Kutubxonachi Dilshoda opa bizlarga kitob tanlashda yaqin ko'makchi. Haftaning har seshanba kuni maktabimizda «Matbuot kuni» deb e'lon qilingan. Shu kuni vaqtimizni kutubxonada o'tkazamiz, «Tong yulduzi» gazetasidagi maqolalar bilan tanishamiz. Dilshoda opaning aytishicha, biz qanchalik ko'p mutolaa qilsak, erkin fikrlar ekanmiz, dunyoqarashimiz ham kengayar ekan. She'rlarni yod olsak, xotiramiz kuchli bo'larkan. Bu esa biz yoshlarni ijodga, hunar o'rganishga, do'stlar

orttirishga undaydi. Qolaversa, mutolaa orqali ona zaminimizga yanada mehrimiz ortadi, oldimizga katta-katta maqsadlar qo'yamiz.

Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 44-umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchilari nomidan Shohruhbek ESONALIYEV, Gulhayo ISOQALIYEVA, Zahro RUSTAMOVA, Nafosat IBROHIMOVA, Shodiyona ABDUPATTOYEVA

# ALIFBENI ENDI MEN HECH QIYNALMAY O'QIYMAN

## kichkintoylar savodxon bo'lganliklaridan juda xursand

Aziz bolajonlar! Mana bayram-u ta'tildan zavq-u shavqqa to'lib, 3-chorakni ham boshlab yubordingiz. Ushbu chorakni ayniqsa, 1-sinf o'quvchilari katta qiziqish va o'zgacha ishtiyoq bilan qarshi olishsa, ajabmas. Chunki ular bu uch oylikda ilk bor qo'llariga o'qish kitobini olib, bir-biridan qiziqarli she'r va hikoyalarni sharillatib o'qiy boshlaydi.

Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 261-umumta'lim maktabida 1-sinf o'quvchilari ishtirokida «Savodxonlik muborak!» mavzusida tadbir o'tkazildi. Kechani tashkillashtirishda ustoz Sanoat Abdiyevaning xizmatlari cheksiz bo'ldi.



Dastlab, sahnaga ertak qahramonlari chiqib turli qiziqarli o'yinlar o'tkazdi. Shundan so'ng, bolalar tomonidan bir necha she'rlar ifodali o'qildi, qo'shiqlar kuylandi. Ayniqsa, o'quvchilarning alifbe kitobidan olgan bilimlarini turli badiiy chiqishlar orqali namoyish etishi, ota-onalar qalbini quvonchga to'ldirdi.

So'ng so'z navbati maktab rahbari Muzaffar Boboyunusovga berildi. Ular o'quvchilarni alifbe kitobini tugatganliklari bilan samimiy qutladi. Bolalarga inson xato qilishdan also cho'chimasligi, aksincha bundan to'g'ri xulosa chiqarishi lozimligini uqtirdi.

Muzaffar AHMEDOV

Poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 300-umumta'lim maktabining 1-«F» sinf o'quvchilari ham o'tgan chorakda alifbe kitobini o'qib tamomlagan edi. Kichkintoylar sevimli kitoblari bilan xayrlashishi



munosabati bilan ajoyib bayram o'tkazildi. Tomoshada bolajonlar o'zlari aytgan she'rlarida ta'kidlaganlariday, ustozlari Tamara opa Ahmedova ko'magi bilan savodlarini chiqardi. Shu sabab, jajji bilag'onlar «Ertaklar olamida» nomli tadbirda bir ovozdan:

Alifbe va hisob ortda, Bari qoldi, qoldi yodda. Raqam tanish, harflar tanish, Qo'ldan kelar o'qish-yozish... deya

mehribon ustozlariga minnatdorlik bildiridilar. Hatto odobi a'lo bo'lgan bolajonlar «Salom bergan bolaning...» deya takrorlanuvchi qo'shiq ham kuylashdi. Bayramga Ertakchi amaki mehmon bo'lib keldi. U ertaksevar bolajonlarni ko'rib, juda quvondi va ularga o'zi yozgan yangi ertaklardan aytib berdi.

Demak, endi savodxon-u tirishqoq o'quvchilar bilimlar olamida dadil odimlaydi. Va o'zlari o'qigan kitioblardagi ezgu qahramonlar kabi murod-maqsadlariga yetadi.

Sayyora QODIROVA

**Maktabimizda zukko va tirishqoq o'quvchilar juda ko'p. Sababi, o'qituvchilarimizning barchasi talabchan va mehribon. Dilnoza Davirova, Mahbuba Sarimsoqova, Nigora Xudoyberdiyeva, Muyassar Husanova, Nuriddin Shaydoyev, Turg'un Bo'riboev va Sherali Xudoyqulov kabi ustozlar o'z kasbining jonkuyarlari sanaladi.**

## IJODKORLAR MAKTABI

Bugunga qadar maktabimiz o'quvchilari «Yosh kitobxon» ko'rik-tanlovi, «Bilimlar bellashuvi», «Fan olimpiada»lari va sport musobaqalarida g'olib bo'lmoqda.

Fanlar bo'yicha o'tkaziladigan bellashuvlarda Muhammadam Saydirahmonov, Lazizabonu Norboyeva, Umidjon Ernazarov, Aziza Xudoyberganova, Shohjahon Narzullayev, Mashhura Bosilova, Diyora Jabborova faxrli o'rinlarni egallamoqda.

Maktabimiz tumanda ijodkorlar maskani hisoblanadi. O'quvchilar orasida o'zining iqtidori bilan boshqalardan ajralib turuvchi yoshlar juda ko'p. Ular uchun maktabimiz kutubxonachisi Gulchehra opa Xo'jakeldiyeva o'zlarining beminnat yordamini ayamaydi. Ta'lim maskani rahbari Ilhom Lutfullayev esa hech bir o'quvchini nazoratsiz qoldirmaydi.

**Zumrad ESHMIRZAYEVA,**  
Toshkent viloyati, Chinoz tumanidagi  
37-umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi

## «TONG YULDUZI» O'QIYMIZ

Assalomu alaykum, «Tong yulduzi»ning jonkuyar xodimlari!



Biz gazetaning har bir sonini muntazam o'qib boramiz. Undan beminnat ma'naviy ozuqa olamiz. Qadrdon maktabimizga gazetaning yangi soni kelgan kuni qalbimiz quvonchga to'ladi.

Quvonarli, yangi yilda ham «Tong yulduzi» bilan birgamiz. Chunki maktabimiz o'quvchilari allaqachon ushbu gazetaga obuna bo'lib ulgurgan. Maktabimizda rassom, sportchi va ijodkor o'quvchilar talaygina. Sinfdoshlarim Gulshod Farmonova, Manzura Mansurova dzyudo va kurash bo'yicha O'zbekiston chempionlari hisoblanadi.

Yaqinda maktabimiz uchun yana bir quvonchli voqea bo'ldi. «Kamalak» yulduzlari tanlovining fortepiano yo'nalishida Dilnura Muzaffarova, tasviriy san'at bo'yicha Diyora Choriyeva 2-o'rinni egalladi. Eng asosiysi, erishgan yutuqlarimiz «Tong yulduzi» sahifalari orqali muntazam yoritib kelinmoqda. Buning uchun gazeta xodimlaridan minnatdormiz.

**Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi 40-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchilari nomidan Dilshod FARMONOV**

14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni

## SIZ MENING G'URURIM, SHARAF-SHONIMSIZ!

**Har yili 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni oilamizda katta bayram sifatida nishonlanadi. Shu kuni erta tongdan barchamiz dadajonimni tabriklashga shoshilamiz. Chunki ular zaxiradagi tibbiy xizmat mayori Abdurahmon Xurramov bo'ladilar. Dadajonim 20 yil davomida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligiga qarashli Qarshi va Farg'ona harbiy gospitalarida samarali xizmat qilib, ko'plab harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari sog'liklarini mustahkamlashda o'zining munosib hissasini qo'shganlar.**

Ayyom kuni nonushtadan so'ng dadajonim o'zining chiroyli harbiy liboslarini kiyib, bayram tantanalarida ishtirok etish va birga xizmat qilgan safdoshlari bilan uchrashish uchun o'zi faoliyat yuritgan gospitalga tashrif buyuradi. Ular nafaqada bo'lishlariga qaramay, gospitalga shoshilinch ravishda yotqizilgan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolariga malakali tibbiy yordam ko'rsatish uchun doimo shay turadilar.

Bir voqea hech yodimdan chiqmaydi: o'tgan yili yoz oylarining birida kechki payt shahrimizdagi saylgohga oilaviy dam olish uchun borgan edik. Shu payt dadamning qo'l telefoni jiringlab qoldi. Otam qo'ng'iroqqa javob berar ekan:

– Albatta, hozir zudlik bilan yetib boraman, – dedilar.

O'shanda men norozi ohangda: – Dada, siz hozir nafaqadasiz-ku. Biz bilan mazza qilib dam olsangiz bo'lmaydimi? – dedim. Ular esa boshimni silab, muloyim ohangda: – Men, eng avvalo, harbiy



shifokorman, qizim. Bu kasb juda mashaqqatli va sharaflidir. Yordamimga muhtoj bo'lgan insonlarga ko'maklashish uchun har doim tayyor turishim lozim, – dedilar-da, shoshilganча jo'nab ketdilar. O'sha voqeadan so'ng men ham kelajakda, albatta, dadam singari o'z kasbimning fidoyisi bo'lishga qat'iy ahd qildim.

Shu fursatdan foydalanib, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmat qilayotgan barcha mard va jasur harbiy xizmatchilarni, dadamning safdoshlari bo'lgan vatanparvar va fidoyi harbiy shifokorlarni «Vatan himoyachilari kuni» bilan qizg'in muborakkob etaman.

Vatan deya halol xizmat qildingiz,  
Yurtga sadoqatni e'tiqod deb bildingiz.

**Mohidil ABDULLAYEVA,**  
Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi  
15-umumta'lim maktabining  
5-«B» sinf o'quvchisi

## MENGA FAXRIY YORLIQ, OTA-ONAMGA ESA...

**Men Sirdaryo viloyatining eng ilg'or ta'lim maskanlaridan birida tahsil olaman. Chet tillariga qiziqaman. Qalbimda chet tillariga bo'lgan mehrni ustozim Odil aka Mingjigitov uyg'otganlar. U kishining bergan chuqur bilimlari va yo'riqlari tufayli ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritdim.**

Fransuz tili bo'yicha o'tkazilgan «Bilimlar bellashuvi»ning respublika bosqichida faol ishtirok etib, yakunda 2-o'rinni egalladim. 2018-yilda «The change I want to make»

o'rinbosari Zulfira Ahmedova boshchiligidagi dolzarb mavzularda suhbatlar, turli soha mutaxassislari bilan uchrashuvlar o'tkazamiz. Qolaversa, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Guliston shahar Kengashining Tashabbus va loyihalar yo'nalishi sardori sifatida viloyatlik tengdoshlarimning orzu-intilishlari, ularni qiynayotgan muammolarni o'rganaman, bu borada yoshlar bilan o'zaro fikr almashaman. O'tgan yil yakunida yoshlar hayotiga doir barcha loyihalarda faol ishtirokim uchun Sirdaryo viloyati hamda Guliston shahar hokimi tomonidan faxriy yorliq, ota-onam esa tashakkurnoma bilan taqdirlandi.

Kelajakda yetuk diplomat bo'lib, O'zbekiston va Fransiya o'rtnasidagi do'stona aloqalarni yanada mustahkamlashga o'z hissamni qo'shsam deyman.

**Madina SUNNATOVA,**  
Sirdaryo viloyati, 1-son xorijiy tillarga  
ixtisoslashtirilgan maktab-internatining  
11-sinf o'quvchisi



mavzusidagi xalqaro insholar tanlovida ishtirok etganligim uchun «Goi» xalqaro fondining maxsus sertifikatini bilan taqdirladim.

Bundan tashqari, maktabimizdagi «Qiz-larjon» klubida ham faoliyat olib boraman. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor

**Aziz bolajonlar! Qalbingizda mutolaaga cheksiz mehr uyg'otib, sizlarni yangi-yangi asarlar bilan tanishtiradigan, izlagan kitobingizni topishga ko'maklashadigan mehribon kasb egalarini yaxshi taniysiz-a? Ha, ular kutubxonachi va Axborot-resurs markazining jonkuyar xodimlaridir.**

## ZIYOKORLAR BELLASHUVI



Bilasizmi, kitobxonlarga be-minnat xizmat ko'rsatadigan ushbu soha vakillari tezkor va faollik bilan ishlashga harakat qilib, hatto o'zaro bellashib ham turarkan.

Ortda qolgan 2018-yilning so'nggi kunlarida «Barkamol avlod» Respublika bolalar badiiy ijodiyot markazi hamda Respublika bolalar kutubxonasi hamkorligida «Yilning eng yaxshi Axborot-resurs markazi mutaxassisi» respublika tanlovi o'tkazildi. Ishtirokchilar turli shartlar bo'yicha o'zlarining bor bilim va mahoratlarini yig'ilganlarga namoyish etdi. Tanlov g'oliblari safidan o'r in egallagan Qashqadaryo viloyati, Shahrizabz tuman «Barkamol avlod» bolalar badiiy ijodiyot markazi mutaxassisi Dilfuza Ashirova tadbir tashkilotchilariga minnatdorlik bildirarkan, yurtimiz kelajagi bo'lgan kitobxon o'quvchilar

uchun xizmat qilayotganidan baxtiyor ekanini ta'kidladi.

Yosh kitobxon do'stlarim, siz-chi, tuman va maktabingizdagi Axborot-resurs markazi xodimlari faoliyatiga qanday baho berasiz? Ularning fidoyi mehnatlarini oqlab, eng faol kitobxoniga aylanishga harakat qilyapsizmi?! Bu haqda bizga, albatta, yozib yuboring.

Sayyora QODIROVA

## KITOBXONLAR SAHNADA

**Mamlakatimizda kitobxonlik yaxshi va ibratli an'anaga aylanib borayotir. Ayniqsa, maktablarda muntazam o'tkazilib kelinayotgan ko'rik-tanlovlar muhim ma'naviy va ma'rifiy tadbirlardan ekanligi bizni benihoya xursand qiladi. Kitob ziyo kabi maktablarga, oilalarga kirib borayotganligi farzandlarimizning bilim dunyosi yuksalayotganini ko'rsatib turibdi.**

Yangi yil arafasida Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi 319-umumta'lim maktabida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida «Yosh kitobxonlar» respublika ko'rik-tanlovining yakunlovchi bosqichi bo'lib o'tdi. Tanlovda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan g'olib bo'lgan maktablarning o'quvchilari ishtirok etdi.

Bellashuvda dastlab tuman va shahar Axborot-resurs markazlari tomonidan 7-10-sinf o'quvchilaridan 5 nafari tanlab olinib, jamoalar shakllantirildi. Ular Nizom bo'yicha uch bosqichli sinovdan o'tdilar. Yakuniy bosqichda jamoalar ikkita shart bo'yicha o'zaro bellashdi. Ayniqsa, Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 271-umumta'lim maktabi o'quvchilari Abdulla Qodiriyning

«O'tkan kunlar» romani, Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidagi 14-IDUM o'quvchilari esa Said Ahmadning «Ufq» romani, Samarqand tumanidagi 2-IDUM o'quvchilari Abdulla Orpovning «Sohibqiron» dramasi, Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi 51-umumta'lim maktabi o'quvchilari Pirmuqol Qodirovning «Avlodlar dovoni» romani asosida tayyorlagan sahna ko'rinishlari hayotiy va jozibali ijrosi bilan alohida ajralib turdi. Qolaversa, Xorazm viloyati, Gurlan tumanidagi 5-umumta'lim maktabi o'quvchilari Maftuna Muhanova va Mahliyo Bobojonova «O'tkan kunlar» romani qahramonlaridan biri Zaynabning onasi Xushro'y bilan uchrashuv sahnasini juda ham ishonarli ijro etib, ishtirokchilar olqishiga sazovor bo'ldi.

Ikkinchi shartda o'quvchilar o'zlarining qay darajada bilimdon kitobxon

## MEN SEVGAN ASAR

**Haqiqiy olmosning qiymati yillar davomida o'zgarmaganidek, asl durdona asarlarning ahamiyati ham zamonlar o'tsa-da, yo'qolmaydi.**

Yozuvchi Asqad Muxtorning serqirra ijodiga ana shunday ta'rif bersak arziydi, albatta. Ayniqsa, adibning biz kitobxonlar qo'lidan hech tushmaydigan «Chinor» romani muallifga katta shuhrat keltirgan. Chunki bu asarda real hayot aks ettirilib, u jamiyatda katta burilishlar yasaydi. Zero, adib bu asarini yozayotganida, yurak to'la dard, alam, qayg'u va shodlik, iftixor ila qalam tebratgan. Ustoz O'tkir Hoshimov ta'biri bilan aytganda, yozuvchining o'quvchiga aytadigan dardi qancha kuchli bo'lsa, asar tili shuncha biyron bo'ladi.

Asar mazmuniga qaytsak, barcha insoniy taqdir-lar 93 yoshli Ochil bobo hayoti bilan bog'lanadi. Romanda boboning nabirasi Akbarali chinor shajarasidagi bir mo'rt barg, deya ta'riflanadi. Sababi, taqdir uni bir necha mashaqqatlar bilan sinaydi. Afsuski, qo'rqoqlik, jur'atsizlik uning hayotini ag'dar-to'ntar qilib yuboradi.

Mana shunday mukammal asarlar hamma vaqt o'z o'quvchilarini topadi va yangi-yangi iste'dodlarni kashf etishga xizmat qiladi.

Aziz yoshlar! Sizga ham ushbu romanni diqqat bilan o'qib chiqishni tavsiya qilaman. O'ylaymanki, bundan sira afsuslanmaysiz.

Asalbonu RAJABALIYEVA,  
Toshkent viloyati, Bekobod tumanidagi  
31-umumta'lim maktabining  
11-«A» sinf o'quvchisi




ekanliklarini namoyon etdilar. Yakunda Samarqand, Xorazm, Namangan viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasidan kelgan o'quvchilar yuqori o'r inlarga sazovor bo'ldilar.

Maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazib kelinayotgan «Yosh kitobxonlar» ko'rik-tanlovi 2019-yil ham davom etadi. Har qanday bellashuvda eng kuchlilar, bilimlilar g'oliblikni qo'lga kiritadilar. Ushbu tanlov o'quvchidan ko'p kitob o'qishni, u bilan sirdosh, dildosh bo'lishni va bugungi adabiyot jarayonini muntazam kuzatib borishni, yangi chop etilayotgan kitoblarni sevib mutolaa qilishni taqozo etadi. Shunda g'oliblar safida bo'lishingizga aslo shubha yo'q. Chunki kitob bizning do'stimiz. Do'st bilimdonlarni sevadi va qo'llab-quvvatlaydi.

Ashurali JO'RAYEV


# MILLIARDLARNI LOL QILGAN ASARLAR



## Aleksandr Dyuima – «Graf Monte Kristo»

Dyuima 1827-yilda tanishgan do'sti Jozef Meri bilan uchrashish uchun Marselga kelgan edi. U do'sti tufayli bu shahar bilan qattiq bog'lanib qoladi. 1834-yilda adib Fransiya janubiga sayohat qiladi. Marsel esa bu safarning so'nggi nuqtasi edi. Sayohat nihoyasida Dyuma kema orqali If

qal'asini ko'rish uchun boradi. O'shanda 1834-yilning 10-dekabr sanasi edi. Ehtimol, bu yirik asar g'oyasi ham ana shu pallada dunyoga kelgandir? Ammo shunisi aniqki, u Dantes haqidagi yirik asarni yozishga bel bog'laganida, voqea joyi sifatida o'zi yaxshi bilgan va ko'rgan mana shu portni tanlaydi. Adibning tasavvur doirasi shu qadar keng ediki, uning asaridagi voqealar hayotdagidan ko'ra hayotiyroq, haqiqatning o'zidan ko'ra haqqoniyroq chiqqan. If qal'asining bunchalik shuhrat qozonishida Dyuimaning asari katta o'rin tutgan, desak, yanglishmagan bo'lamiz.



## Volfgang Gyote – «Yosh Verterning iztiroblari»

Gyote hali 25 yoshga to'lmay turib yozgan bu asari haqiqiy klassikaga aylanishini kutmagan bo'lsa kerak. Kitob nashr etilgach, tanqidchilar Gyotega

shunday ta'rif berishgan: «Adabiyotga romantik qahramonni armug'on etgan adib». «Yosh Verterning iztiroblari» ham kitob holdida o'quvchilar

qo'lga tushishi bilan eng sevimli asarlar qatorida tilga olina boshlagan. Bugun yer yuzida ushbu asarni o'qiganlar soni 1 milliardga yetgan.




## Ernest Xemingvuy – «Chol va dengiz»

Xemingvuy asarlari o'zining jozibasiz bilan har bir o'quvchining qalbiga kirib boradi. U tom ma'noda kitobxonni asir etadi. Yozuvchiga Nobel

mukofotini olib bergan ushbu asar bugun millionlab xonadonlarning kitob javonida saqlanadi. Kitobxon har gal qo'lga ushbu asarni olishi bilan

uning ichiga qanday kirib ketganini bilmay qoladi. Hatto «Manchester Yunayted» klubi hamda Fransiya terma jamoasining sobiq hujumchisi

Erik Kantonadan «Gol urish uchun nimadan ilhomlanasiz?» deb so'rashganida «Xemingvuyning asarlaridan» deb javob bergan ekan.



## Rashod Nuri Guntekin – «Choliqushi»

«Choliqushi» ilk bor 1922-yilda Turkiyaning «Vakit» gazetasida parchalar holda chop etilgan. Asar o'quvchilarni shu qadar o'ziga bog'lab olgandiki, gazetaning keyingi soni chiqishini inqilq bilan kutadigan bo'lib qolishgandi.

Shundan keyin o'sha yilning o'zida kitob holdida bosmadan chiqdi. 1939-yilga qadar «Choliqushi» besh bor nashr etildi. Shunda ham tanqislik kuzatilgach, Rashod Nuri Guntekin asarni o'z hisobidan yana nashr ettiradi. Kitob ingliz,

nemis, fransuz, rus, o'zbek, ozar tillariga tarjima qilingan. Uning o'quvchilari soni ham 1 milliardga yetadi.

Internet manbalari asosida  
Sherali TOSHNIYOZOV tayyorladi

### Lesson 2

### INGLIZ TILINI O'RGANAMIZ

**Defense of the Republic of Uzbekistan is the duty of every citizen of the Republic of Uzbekistan. Citizens shall be obliged to perform military or alternative service in the procedure prescribed by law.**

Article 52

Constitution of the Republic of Uzbekistan


## COLOR IDIOMS

Read the idiom and find right definition

To sing the blue	Sad or depressed
Blue Monday	A depressing day since it is the first day of work after a two day weekend
Blue ribbon	The first prize
Once in a blue moon	Very seldom
Tickled pink	Overjoyed



Painter: Yoqubbek HALIMBEKOV



- I won a ticket to France from lottery. I was... and began to jump for joy.
- I don't want go back to work after weekend. It is really...
- My uncle has just lost all his money in the market. Now he is ...
- My sister won ... for taking first place. She was the fastest runner among the sixth grade girls.
- Our grandparents live so far away. We get see them ...

Ma'mura G'ULOMOVA

## HOW MANY NOUNS VERB YOU FIND?

S	O	L	I	D	E	R
a	n	a	n	a	a	u
y	i	y	d	y	r	b
j	o	t	e	e	b	b
p	n	c	c	u	t	e
l	r	x	t	w	a	r
a	u	t	j	p	l	u
q	j	f	p	z	l	n

Dinora ABDULLAJONOVA

## COMPOUND NOUNS

Compound nouns combine two related words. The first word gives us more information about the second, e.g. **shoe shop, history teacher, paper bag**. What other words make compound nouns with shop, teacher and bag? Compound nouns can be written as one word, two words or with a hyphen.

Find and underline a compound noun in each sentence.

- I live next to the main road, so it's a bit noisy.
- There's a wonderful bookshop near where I live.
- There's lovely public swimming pool by my house, and it is free for children.
- Where I live is good for window shopping but too expensive to buy anything!



Muhammadsharif FAYZULLAYEV

## QIYOSINGGA SO'Z TOPMADIM

Aytgil, Vatan, seni qanday ta'rif etay?  
Belni bog'lab xizmatingga mag'rur ketay.  
So'ylasam gar bog'-u rog'ing yo gulzoring,  
Barcha shoir aytib bo'lgan dildan borin.

Nelaringdan so'z ochayin, ey Vatanim,  
Senga fido bo'lsin mening jon-u tanim.  
Qiyosingga so'z topolmay kezdin, ammo,  
Yuragimdan his etaman lek doimo.

**Mohidilxon YO'LDOSHEVA,**  
Andijon viloyati, Oltinko'l tumanidagi  
16-umumta'lim maktabining  
10-sinf o'quvchisi

## QISH ZIYNATI

Yangi yil shukuhi,  
Ko'zlarda quvonch.  
Oppoq qor uchquni,  
Baxsh etdi sevinch.

Bunchalar viqorli,  
Poklikka uyg'un.  
Keldingmi, sevikli,  
Jonajonim qish.

**Mashhura XO'JAAHMADXONOVA,**  
Namangan viloyati, To'raqo'rg'on  
tumanidagi Is'hoqxon Ibrat  
maktab-internati o'quvchisi



## JAJI POSBON

Qo'llarimda bayroqcha,  
Men ham jajji askarcha.  
Qo'riqlayman Vatanni,  
Katta bo'lsam, albatta.

**Jasmina IBODOVA,** Buxoro  
viloyati, G'ijduvon tumanidagi  
43-umumta'lim maktabining  
2-«B» sinf o'quvchisi



## KO'KDA QORNING INI BOR

Qor yog'adi, laylak qor,  
Go'yo ko'kda ini bor.  
Yalt-yalt, milt-milt qiladi,  
Olmosdek tovlanadi.

Qizlar qorbobo yasar,  
Bolalar chana uchar.  
Bahor kelsa, xayr qish,  
Senga tasanno, olqish.

**Amina HASANOVA,**  
Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi  
234-umumta'lim maktabining  
5-«V» sinf o'quvchisi

## AJDODLAR XITOBI

Ochsak tarix kitobin,  
Yashnatib dil oftobin.  
Eshitgandek bo'lurmiz,  
Ajadolarning xitobin.

Go'yo To'maris momom:  
– Yurtni yovdan asrang, – der.  
Himoyachi bo'lurmiz,  
Aziz ona Vatanga!

Mard askarlar qalbida,  
Quvvat bo'lsin, kuch bo'lsin.  
Baxtimizga ona yurt –  
O'zbekiston tinch bo'lsin!

## ASKAR QO'SHIG'I

Biz – ona yurt bag'rida,  
Sho'x-u xandon bolamiz.  
O'sib-unib, tez kunda,  
Kuch-g'ayratga to'lamiz.

Jondek aziz Vatanga,  
Sodiq o'g'lon kerakdir.  
Qalbg'a – yoniq alanga,  
Elga posbon kerakdir.

## DONISHMAND BOBO ERTAKLARI

Oloy tog'ining berisida, Qatron tog'ining nari-  
sida kengligi, go'zalligi olamga yoyilgan vodiya  
ajoyib bir mamlakat bo'lgan ekan. Bu yurt  
shunday go'zal, shunday boy bo'lgan ekaniki,  
boshqa mamlakatlarning ochko'z podsholari,  
«Bir amallab shu o'lkani o'zimga bo'ysun-  
diram, poyoni yo'q yaylovlari, sersuv  
anhorlari, yer usti, yer osti boyliklari  
meniki bo'lsa», deya orzu qilar  
ekan. Lekin bu yurtning odamlari  
behad ahil-inoq, ona Vatani,  
uning boyliklarini himoya qilish  
uchun kerak bo'lsa, jon fido  
qilishga tayyor ekan. Ular  
bostirib kelgan yovlarni bir  
tan-u bir jon bo'lib, taslim  
etisharkan. Yengilgan  
poshsolar alamzadalik  
bilan «Hali bundan  
ham kattaroq kuch  
bilan kelaman»,  
deb orqasiga qay-  
tib ketar ekan.

Ana shunday  
yengilgan pod-  
sholardan biri  
qo'shin yig'ishim  
kerak, deb o'ylar  
ekan-u, ammo buning

uchun pul ham, tillo xazirasi ham yo'q ekan. Bir  
kuni u ortiga qaytayotib, yaqinginada jang bo'lib  
o'tgan bir muzofotga to'xtabdi. Bu yerda katta  
hovuz bo'lib, uning atrofida baland-baland su-  
palar bor ekan. Supalarning biriga tezda u uchun  
shohona joylar hozirlashibdi. Shoh g'amga botib,  
«Otamdan qolgan eski qilichdan boshqa hech  
narsam yo'q, qo'shinni qanday yig'aman?» deb  
o'yga cho'mib o'tirgan ekan, to'satdan katta hovuz  
tagida yaltirab turgan bir nimaga ko'zi tushibdi.  
Hovliqibdi, entikibdi va darrov vazirini chaqirib,  
unga ham suv tagidagi narsani ko'rsatibdi. Vazir

esa: «Shahanshohim, tillo-ku bu. Tillo bo'lganda  
ham eng zo'ri», debdi hayron-u lol bo'lib.

Podshoning suvga sho'ng'iydigan maxsus g'av-  
vos askarlari bor ekan. Tezda  
o'shalardan ikkitasini suvga  
tushirib: «Darhol oltinni olib  
chiqinglar», deya amr  
etibdi. G'avvoslar bir  
muddat suvda yo'q bo'lib  
ketishibdi. Nihoyat, ho-  
vuz limmo-lim loyqaga  
to'libdi. Sho'ng'igan ikki  
g'avvos-navkar esa qup-quruq  
chiqib, «Shahanshohim, hech  
qanday tillo yo'q ekan»,  
deyishibdi. Shoh navbat-  
dagi g'avvoslarga suvga  
tushishga buyruq beribdi.  
Ular ham ketma-ket  
sho'ng'ib, bir hovuch-  
dan balchiq olib  
chiqishibdi,  
xolos. Pod-  
sho darg'azab



## QARI BILGANNI PARI BILMAS

(Ertak)

bo'libdi, so'ng esa  
o'yga tolibdi. Shunda vazir, «Bu yerda bir sir borga  
o'xshaydi, agar ruxsat bersangiz, «Sehrgar romchi»  
deb nom olgan kampir bor, shuni olib kelamiz»,  
debdi shohga. U esa rozi bo'libdi. Sehrgarni ham,  
ortidan boshqa bir necha romchilarni ham olib  
kelishibdi. Ammo ular ham bu sinoatning tugunini  
yecha olishmabdi. Hovuzdagi loyqa suv tinishi  
bilan oltin yana ko'zni kuydurgudek yaraqlab  
turaverarmish.

Shunda yana bir vaziri:

– Shohim, «Bir qarining gapiga kir, bir pari-  
ning» degan naql bor. Mana, parilarning gapiga

**Xudoyberdi TO'XTABOYEV,**  
O'zbekiston xalq yozuvchisi

kirdik, natija bo'lmadi. Endi qarilarning ham so'zini  
olaylik, – debdi.

Bu fikr shohga ham, boshqalarga ham ma'qul  
bo'libdi. Podsho mamlakatning eng kessa kishisini  
keltirishga farmon beribdi. O'shunday nuroniy  
kishi topilibdi. Askarlar uni izlab borishsa, qariya  
ko'chasi oldidagi supachada ikkita nabirasini  
tizzasiga olib, «O'sib ketgan soqolimni tarab  
qo'ysang, yong'oq beraman», deb bolajonlarga  
hazilnamo gap qilib o'tirgan ekan. Tezda otaxonni  
podsho huzuriga keltirishibdi. Ularga bo'lgan  
voqeani aytib berishibdi. Mo'ysafid chol o'yga  
tolibdi-da, birozdan keyin boshini ko'tarib:

– Shahanshohim, bu tillolar hovuzda emas,  
hov anavi baland o'sgan chinorning juda baland  
shoxiga qo'yilgan. Ikki barkash tillo bir-biriga rang  
berib, charaqlab turibdi, – debdi.

Qiziq voqealar, bu yerda janglar boshlanishi ol-  
didan bir oltinfurush zargar, «To'polonda tillolarimni  
olib chiqib ketolmayman», deb oltinlarini quyma  
holga keltirib, o'sha uncha-muncha odamning  
aqli yetmaydigan joyga qo'yib ketgan ekan. Qa-  
riyaning gapini eshitgan shahanshoh darhol ikki  
navkarini chinor ustiga chiqaribdi. Chindan ham  
tillo o'sha yerda ekan. Podsho ham, vazirlar ham  
cholning to'qirligidan xursand bo'lishibdi. Tezda  
oltin quyuvchilarni topib kelib, tillolarni tangalarga  
aylantiribdi. Tangalarga otlar, qilich-qalqonlar  
sotib olishibdi va navbatdagi jangga tayyorgarlik  
ko'rishibdi. Shahanshoh: «Mamlakatda qancha  
chol bo'lsa, hammasiga oq yaktak kiygizing,  
ostiga atlas ko'rpachalar to'shang, yonboshiga  
par yostiqlar qo'ying», deb farmon beribdi.

O'shandan buyon bu mamlakatning askarlari  
hech bir jangda yengilmas, ko'pni bilgan duo-  
go'y bobolari esa atlas ko'rpachalar ustida par  
yostiqlarga yonboshlab hordiq chiqarishar ekan.



AFC ASIAN CUP  
UAE 2019

Aziz o'quvchilar, bugun dunyoda birinchi raqamli sport turi qaysi ekanini bilasizmi? Futbol, deyisizmi? Barakalla, topdingiz! Darhaqiqat, futbol ayni paytda sayyoramizdagi milliardlab insonlarning eng sevimli sport turiga aylangan. Krishtianu Ronaldu, Lionel Messi, Pol Pogba, Kilian Mbappe va Odil Ahmedov kabi kuchli charmt o'p ustalarining yashil maydonda namoyish etadigan betakror o'yinlari, ajoyib driblinglari barchamizni o'ziga maftun etadi.

# OSIYODA KATTA FUTBOL BAYRAMI

Xabaringiz bo'lsa, shu kunlarda Osiyo qit'asi chinakam futbol havosi bilan yashamoqda. Boisi, Birlashgan Arab Amirliklarida to'r

qilmoqda. Janubiy Koreya 2, Isroil, Kuvayt, Iroq va Avstraliya hisobida bittadan muvaffaqiyat mavjud. So'nggi bor ushbu musobaqada bundan 4 yil avval Avstraliya terma jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritgan.

Dabidagi «Zayed Sports City» arenasida bo'lib o'tadi.

«Osiyo kubogi – 2019» musobaqasining ochilish uchrashuvi 5-yanvar sanasida BAA va Bahrayn terma jamoalari o'rtasida bo'lib o'tdi. Unda 1:1 hisobi qayd etildi.

Group A	Group B	Group C
UAE	Australia	Korea Republic
Thailand	Syria	China PR
India	Palestine	Kyrgyz Republic
Bahrain	Jordan	Philippines
Group D	Group E	Group F
IR Iran	Saudi Arabia	Japan
Iraq	Qatar	Uzbekistan
Vietnam	Lebanon	Oman
Yemen	DPR Korea	Turkmenistan

Keling, endi «Osiyo kubogi – 2019» turniriga mezbonlik qilayotgan Birlashgan Arab Amirliklari davlati haqida ham qisqacha to'xtalib o'tsak.

**BAA** – Arab Dengizining janubi-sharqiy qismida joylashgan bo'lib, u Qatar, Ummon sultonligi va Saudiya Arabistoni qirolligi bilan



yllikning eng nufuzli sport anjumani – futbol bo'yicha Osiyo kubogi musobaqalari ko'tarinki ruhda bo'lib o'tmoqda. 5-yanvar kuni start olgan turnir 1-fevralga qadar davom etadi. E'tiborlisi, bu gal musobaqada ilk bor 24 ta jamoa o'zaro 6 ta guruhga bo'lingan holda g'oliblik uchun bahs olib boradi.

Shu o'rinda Osiyo kubogi tarixiga qisqacha nazar solsak. Bilasizmi, ushbu nufuzli musobaqa konfederatsiyalar o'tkaza boshlagan 2-tarixiy turnir sanaladi. Bundan avval faqat «Copa Amerika» musobaqasi tashkil etilgan.

Qit'a birinchiligi ilk bor 1956-yilda bo'lib o'tgan. E'tiborlisi, 1984-yildan buyon Yaponiya 4 marta, Saudiya Arabistoni esa 3 marta g'oliblikni qo'lga kiritdi. Orada faqat bir bora Iroq milliy terma jamoasi g'alaba nashidasi-ni surgan, xolos. Umumiy g'oliblik borasida Yaponiya 4, Saudiya Arabistoni va Eron 3 martadan chempion bo'lib, peshqadamlik

chegaradosh. Mamlakatning qirg'og'i Ummon va Fors ko'rfazining suvlari bilan yuviladi. Mamlakat maydoni 83,6 ming<sup>2</sup> km.ni tashkil qiladi.

**Poytaxti:** Abu-Dabi.

BAA haqida so'z ketganida, ko'z oldimizda yuqori darajali mehmonxonalar, Fors ko'rfazining lojuvard iliq suvlari, zamonaviy savdo markazlari, an'anaviy sharq bozorlari, qaynab turuvchi tunggi hayot gavdalanadi. Dunyoga mashhur shahri Dubay hisoblanadi. Shahar Fors ko'rfazining ajoyib hordiq chiqarish oromgohi va shopping qilish uchun eng qulay joy sanaladi.

**Iqlimi:** BAAda quruq subtropik iqlim hukm suradi. Mamlakatga sayohat qilish uchun qulay vaqt – oktabrdan may oyigacha bo'lgan davrdir. Bu vaqtda harorat 18°C dan 30°C atrofida bo'ladi. Qolaversa, bu muddatda (ayniqsa, fevralda) qisqa muddatli yomg'irlar yog'ib turadi. Yomg'ir ko'pincha BAAning sharqiy qirg'og'i va Fujayra amirligida yog'adi.

Zayed Sports City – 43 620 tomoshabin.

Al Jazira Stadium – 42 056 tomoshabin.



Hazza Bin Zayed Stadium – 25 965 tomoshabin.

Khalifa Bin Zayed Stadium – 16 000 tomoshabin.



Maktoum bin Rashid Stadium – 12 000 tomoshabin.

Al Nahyan Stadium – 11 456 tomoshabin.



Sharjah Stadium – 11 073 tomoshabin.

Al Maktoum Stadium – 10 750 tomoshabin.



Yozda harorat 50°C gacha chiqishi mumkin, namlik juda yuqori. **Tili:** BAAning davlat tili – arab tili hisoblanadi, biroq bunga qo'shimcha tarzda ingliz, hind, urdu va forsiy tillari ham ishlatiladi.

**Pul birligi:** BAAning pul birligi – dirham. Shuningdek, AQSH dollari ham to'lov uchun qabul qilinadi.

BAA'dagi Osiyo kubogi o'yinlari 8 ta stadionda bo'lib o'tadi. Shularning 3 tasi poytaxt Abu-Dabida joylashgan bo'lsa, Dubay va Al-Ayndan 2 tadan o'yingoh tanlab olingan. So'nggi stadion Sharja shahrida joylashgan.

Turnirning ochilish va hal qiluvchi final bahsi Abu

O'zbekiston terma jamoasi esa 9-yanvar kuni Sharja shahridagi 11073 tomoshabiniga mo'ljallangan «Sharja Stadium» arenasida Ummon terma jamoasiga qarshi bahsda maydonga tushdi. Keskin va murosasiz tarzda o'tgan ushbu qarama-qarshilikda futbolchilari-miz 2:1 hisobidagi qiyin g'alabani qo'lga kiritdi. Jamoamiz tarkibida gollarga Odil Ahmedov va Ilhom Shomurodov mualliflik qildi. Guruhimizdagi navbatdagi juftlikda esa Yaponiya terma jamoasi turkmanlarni 3:2 hisobida taslim etdi.

**PS:** O'zbekiston milliy terma jamoasi kecha 13-yanvar kuni turkmanistonlik futbolchilarga qarshi bahs olib bordi.

Sa'dullo TURSUNOV

## MANG'ITLIK YOSHLARGA YANGI YIL TUHFASI

**Mutaxassislarning fikricha, suzish inson organizmi uchun juda foydali sport turi sanalib, u qon aylanish tizimini yaxshilaydi, immunitetni mustahkamlaydi. Suvda suzgan kishining asablari tinchlanib, kayfiyati ko'tariladi.**

Endilikda mang'itlik yoshlar ham sportning mazkur turi bilan shug'ullanish baxtiga musharraf bo'ldilar. Chunki Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo tumani, Mang'it shahridagi Bolalar va o'smirlar sport maktabi qoshida yangidan qad rostlagan zamonaviy yopiq suv havzasi foydalanishga topshirildi.

O'tgan davr mobaynida Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasining manzillik dasturi asosida Qorao'zak, Chimboy, Ellikqal'a tumanlari va Nukus shahrida zamonaviy yopiq suv havzalari qurildi.

11x25 metr o'lchamdagi suzish havzasi, murabbiy va shug'ullanuvchilar uchun yuvinish, kiyinish, dam olish xonalari hamda tomoshabinlar uchun o'rindiqlarga ega suv havzasini bunyod etish uchun 4 milliard 876 million so'm mablag' sarflandi.

Majmuaning ochilish marosimida davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, sportchilar, yoshlar, jurnalistlar ishtirok etdi.

Nurbek QIDIRALIYEV

# ULUG' VATAN!

**MARSH TEMPIDA**

DA: TI - MIZ YOR, NE DE-SAN BOR, HUR HA-YO-TI - MIZ. D: ZIN TOP-GAM, O'ZI-SA BAR, O'Z-BEK O-TI - MIZ. IS- TIQ-LO-CHINIR R-BO-LI-SAN XUY, BA-YO-TI - MIZ. GUL- LA, YASH-VA-KA-MOL-GA-YET, EY, U-LUG' VA-TAN! QI-CHO-QI-SA MEHR, SHAF-QAT, SHI TO-LIQ VA-TAN!

SAL-DA-GO-HIM-SHU VA-TAN! GUL-PA-NO-HIM-SHU VA-TAN! VA-TAN, SE-NING NO-MING-SA JON-NI NI - SOR E-TA- MAN... SAL-DA-GO-HIM-SHU VA-TAN!

GUL-PA-NO-HIM-SHU VA-TAN! VA-TAN, SE-NING NO-MING-SA JON-NI NI - SOR E-TA- MAN!

**Umida ABDUAZIMOVA she'ri, Jumadulla NAZAROV musiqasi**

Baxtimiz yor, ne desak bor, hur hayotimiz, O'zin topgan o'ziga bek, o'zbek otimiz. Istiqolning iqbolidan kuy-bayotimiz, Gulla, yashna, kamolga yet, ey ulug' Vatan, Quchog'ida mehr-shafqat, ishq to'liq Vatan!

**Naqorat:**

Sajdagohim shu Vatan!  
Gulpanohim shu Vatan!  
Vatan, sening nomingga,  
Jonni nisor etaman.

Gulga burkab quchog'ingni guidek to'lamiz, Faxrlansang, arziydigan farzand bo'lamiz. Shoningga-shon, joningga-jon payvand bo'lamiz, Hayotimiz mazmunisan, ey ona Vatan, Farvonlik mavzusisan, yagonam Vatan!

**Naqorat:**

Sajdagohim shu Vatan!  
Gulpanohim shu Vatan!  
Vatan, sening nomingga,  
Jonni nisor etaman.



## SOAT QACHON IXTIRO QILINGAN?

Ma'lumki, eramizdan avval odamlar vaqtni aniqlash uchun quyosh nurlaridan foydalangan. Masalan, quyoshning harakati orqali yerga aylana chizilib, markazga tayyoqcha qo'yilgan. Shu tayyoqcha quyosh nuri tushgan tomonga buralgan holda vaqt aniqlangan.

Keyinroq qadimgi misrliklar suv soati orqali vaqtni aniqlagan. Ammo ular yaratgan qurilmalar aniq vaqtni ko'rsatib bera olmagan. Shundan keyin yunon va rimliklar silindr shaklidagi murakkab suv soatlarini yaratishadi.

Yillar o'tgan sari insoniyat yangidan yangi kashfiyotlarga qo'l uradi. XVII asrga kelib gollandiyalik mexanik Xristian Gyuying birinchi mayatnikli soat ixtiro qiladi. Bu


kabi soatlar tayyoqchani u yon-bu yonga tebranishi orqali vaqtni ko'rsatib beradi. XIX asrda esa birinchi elektron soatlar paydo bo'ladi. 1900-yildan Fransiya va Shveysariyada odamlar qo'l soatlari taqib yurishadi.

Hozirgi kunga kelib esa deyarli barchaning qo'lida soatlarning turli takomillashgan turlarini ko'rishimiz mumkin. Masalan, shu kunlarda bolalar-u kattalar orasida urfga aylangan «smart-watch» soati GPS va telefon vazifasini ham bajarmoqda. Ota-onalar uning yordamida bolalaridan boxabar bo'lib turish imkoniga ega.

**Internet manbalari asosida Nigora ABDUNAZAROVA tayyorladi**

## BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

### «AZIZ DIYOR HIMOYACHILARI» TOPQIRLIK MASHQLARI



**CHAYNVORD** 1. Davlat ramzi. 2. Askarning tantanali ravishda beradigan sodiqlik haqidagi rasmiy qat'iy va'dasi. 3. Dushman hududiga tushirilgan qo'shin. 4. Uzun stvolli, quruqlik va suvdagi yoki havodagi nishonlarga zarba beruvchi artilleriya quroli. 5. Uchish apparatlaridan sakrash moslamasi. 6. Zirhli, gusenitsali texnika. 7. Dunyo tomonlarini ko'rsatuvchi asbob. 8. Muhandislik qo'shinlarining askari. 9. Nomi abadiylashtirilib haykal o'rnatilgan birinchi o'zbek generali, qahramon harbiy xizmatchi. 10. Vatanimiz posbonlari gazetasi. 11. Axborot yetkazishda qo'llaniladigan texnika vositasi. 12. Yirik hududiy harbiy birlashma.

**KRIPTOGRAMMA. Kalit so'zlar:** 1. Xizmatda qahramonlik, mardlik, botirlik, dovyuraklik ko'rsatganligi uchun beriladigan O'zbekiston Respublikasining medali – 17, 2, 13, 12, 4, 2, 3.

2. Armiya va flotta ofitserlik unvoni – 11, 9, 14, 3, 9, 7, 2, 7, 3.

3. Yayov jang qilish uchun belgilangan qo'shin – 16, 6, 14, 12, 19, 2.

4. Mohir o'qotar – 1, 9, 4, 15, 2, 7.

5. O'qotar qurollar stvolining diametri – 10, 2, 11, 6, 5, 4.

6. Olini ko'rish asbobi – 19, 8, 4, 5, 6, 7.

7. Tezotar harbiy qurol – 2, 18, 3, 12, 1, 2, 3.

**Endi kalit so'zlar javoblari orqali shakl atrofidagi raqamlarda yashiringan kriptogrammani hal eting. Bunda ulardan Qurolli Kuchlar faxriysi, «Sog'liqni saqlash» a'lochisi, shoir Iskandar Rahmonning «Ona yurtim, o'g'ling ekanman...» she'ridan to'rt misra ayon bo'ladi.**

**Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV**

**Tong yulduzi**

**Muassis:**  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

**Bosh muharrir**  
Feruz ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuoti va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Qahramon QURONBOYEV,  
Dilshod KENJAYEV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruz JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir**  
Sa'dullo TURSUNOV

**Rassom**  
Feruzbek KAMOL o'g'li

**Sahifalovchi-dizayner**  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma-xonasida chop etildi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga bosmaxona mas'ul.  
Manzillimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz  
Adadi – 13000  
Buyurtma – 3032

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.  
Topshirish vaqti – 18:00  
Topshirildi – 18:00  
Tel./faks: (99871) 244-63-08